



**TALIM JARAYONIDA AHBOROT KOMINIKATSION
TEHNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI.**

ABDURABIYEVA SHAG'ZODAXON JUMAQO'ZIYEVNA

Bag'dod agrotexnologiyalar texnikumi rus-tili fani o'qituvchisi

ABDULLAYEV AVAZBEK MUHAMMADSODIQOVICH

Bag'dod agrotexnologiyalar texnikumi tarbiya fani o'qituvchisi

SIDDIQOVA DILNOZAXON DILMURODOVNA

Bag'dod agrotexnologiyalar texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Anotatsiya: *Yoshlarga talim berishda AKT va inavotsion tehnologiyalaridan foydalanish talim jarayonidagi eng samarali va sermahsul usullardan biri bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish , ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.*

Kalit so'zlar: *axborot, tarbiya, AKT, inavotsion , internet , kommunikatsion tehnologiyalari, ta'lim, texnologiya, pedagogik*

Bugungi XXI asr- glaballashuv va axborot asrida talim dargohlarida ilm olayotgan yoshlar jismonan , aqlan yetuk va barkamol bo'lib ulg'aymoqda. . Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual vma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi,baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-



o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish , ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir!"¹, - deb ta'kidladilar. Shuning uchun yoshlarga talim berishda AKT va inavotsion texnologiyalaridan foydalanish talim jarayonidagi eng samarali va sermahsul usullardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar rivojlanganligi sababli o'quvchi yoshlarga oddiy darslikni o'zidan, yoki eskirgan metodlarni qo'llab dars o'tsangiz, siz darsda o'zingiz kutgan natijaga erisha olmaysiz. Chunki bugungi kun yoshlarimiz, internet , ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lmoqdalar. Ularga dars o'tish davomida ham darslikdan , ham AKTdan foydalangan holda ,o'zaro bog'lab dars tashkillansa ko'zlangan maqsadga erishamiz.

Axborot- kommunikatsion texnologiyalari- axborotni tayyorlash va uzatish jarayonlari bo'lgan ta'limning yangi axborot texnologiyalari bo'lib , uni o'tkazishning asosiy vositasi kompyuter.

Ta'lim texnologiyasi har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini va qobiliyatini, shuningdek , turli vositalar bilan ishlashning mavjud mahoratini hisobga olishni talab qiladi. AKT ham alohida yondashuv muammosini hal qilishi mumkin, shuning uchun o'quv materialining tezligini va malakani oshirib olish mumkin. Bundan tashqari, inovatsion texnologiyalardan foydalanish va o'rganish xarakterini individualizatsiya qilish har bir bola uchun muvaffaqiyatli vaziyat yaratishga yordam beradi, bu esa bolalarning zarur materiallarni olish darajasini oshirishga yordam beradi.[2]

Axborot texnologiyalari- axborotni yig'ish, saqlash,uazatish, o'zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig'indisidan iborat. O'qitishning yangi axborot texnologiyasi deganda – faqat o'quv tarbiya jarayoniga qo'llanishi mumkin bo'lgan eng yangi axborot texnologiyalari tushiniladi. Yangi ahborot texnologiyalari – turli toifali foydalanuvchilar tomonidan EHM asosida axborot olish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat. Axborot



texnologiyalari – ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun axborot yaratish, to'plash, uzatish, saqlash va qayta ishlash, hisoblash texnikasi va aloqa tizimlaridan foydalanishdir. O'qitishdagi information va telekommunikatsion vositalar yordamida axborot uzatish usuli va metodlarining majmui, bilimlarni o'zlashtirishni tekshirish, real hayotda olingan bilimlarni qayta ishlash va ulardan foydalanish demakdir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;



- o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim. [3]

Mashg‘ulotarni guruhlariga ajratib va individul o‘tish uchun o‘quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash, olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amalda qo‘llash, qo‘l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko‘zda tutish muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchining darsga puxta tayyorlanishi, kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy- ommabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo‘lgan kutubxona, uning ishini yengillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta‘minlanishi ham muhimdir [4].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, jahon ta‘limi standartlariga javob bera oladigan ilg‘or tajribalarni ommalashtirish orqali ta‘lim tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishdir. Ayni paytda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘qituvchilari oldida ham turgan eng muhim va dolzarb vazifa o‘quvchilarning ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi ta‘lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Hozirgi kun davr talabi biz pedogoglarni zamon bilan hamnafas ishlashga undaydi. Bugungi kun yoshlari har tomanlama barkamol, yetuk, intellektual salohiyatli bo‘lib ulg‘aymoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017, 14-b.



2. Abdugapur Abduraximovichdj amirzayev ” Darslarda AKTdan inovatsion ta’lim vositasi sifatida foydalanish”. Academic Research in Educational Scences, VOLUME 2\ISSUE11\ 2021y, 1515-bet

3. Zaxro Rasulovna Melibayeva “TA’LIMDA ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

USULLARI” CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL

OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 6 |
2022

4 . Yulduz Aminjonova. Metodika va texnologiya bir-biridan qanday
farqlanadi?

‘Ma’rifat gazetasi’, 2003-y.19-mart